

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING QO'L
MEHNATI MASHG'ULOTLARIDA IJODIY FAOLIYATNI TASHKIL
ETISH**

Farg'ona viloyati Beshariq tumani
10-sonli Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti direktori o'rinbosari
Nuraliyeva Dinora Salimovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarning qo'l mehnati mashg'ulotlarida ijodiy faoliyatni tashkil etish applikasiya mashg'ulotlarida amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarning mustaqil badiiy ijodiy faoliyatida qo'l mehnatiga o'rgatishni tashkil etish asosan ularning bo'sh vaqtlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Unda bolalar kichik guruhlariga bo'linadilar. Bundan mashg'ulotlarni haftasiga bir marta haftaning ikkinchi yarimida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bolalarning o'zlashtirishlarini hisobga olgan – holda o'tkazish mumkin. Ayrim vaqtlarda esa bolalar bilan alohida ishlash tavsiya etiladi. Qo'l mehnatidan o'tkaziladigan har bir mashg'ulotdan ko'zlagan aniq maqsad bo'lishi kerak. Masalan, tugmacha qadash mashg'ulotlarini olib ko'raylik. Bu juda oddiy bo'lib ko'rinsa ham aslida ikki maqsadni ko'zlaydi. Bolalar ip gazlama va tugmacha ranglarini bir – biriga mos olishni shrganadilar, turli teshikli tugmalarni qay shaklda qadasha chiroyli chiqishi haqida o'ylaydilar. Sochiqlarga ilgaklar tikishidan ko'zlangan maqsad esa bolalarni himma uchun mehnat qilishga o'rgatish ularda jamoa uchun mehnat qilayotganidan zavqlanish hissasini o'stirishdir. Qo'l mehnati qurish – yasash faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir. Bolalarda o'z qo'llarini his qilish tuyg'usini uyg'otish, qo'l harakatining barcha ajoyib imkoniyatlarini ochib berish, bu qo'llardan mohirona foydalanishga o'rgatish – ularni kelajakka hyech bir narsaga teng kelmaydigan qimmatbaho hayot kurash bilan ta'minlash, demakdir. Maktabgacha yoshdagi bolalar mustaqil badiiy –ijodiy faoliyati, ayniqsa qo'l mehnati mashg'ulotlari o'yin bilan chambarchas bog'langan. Bu hal turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Masalan, bolalar o'z o'yinlarida kattalar mehnat elementlarini ko'rish mumkin.

Bolalar o'yin deb mehnat faoliyatini amalga oshiradilar, mehnat jarayoniga esa o'yin xarakatlari bevosita kirib ketadi. Mehnat faoliyatini qo'l mehnati deb atalgan turida ulkan pedagogik imkoniyatlar mujassamlangan "Ilk qadam" dasturida qo'l mehnati mashg'ulotlari o'rta va katta guruhlarda o'tkazishni kerakligi ko'rsatigna. Ayni shu yoshda bolalarning o'zlari ham qo'l mehnatiga ishtiyoq bilan kirishadilar. Qurish yasash bilan bevosita bog'langan mehnatining bu turi bolalarda ijodkorlik imkoniyatlarini ochib beradi. Qo'l mehnati deganda biz asosan turlari materiallar karton, qog'oz, yog'och tabiiy materiallar (samon,

daraxt po'stlog'i, shaftali danagi, makkajo'xori o'zagi va hakozi)dan shuningdek chiniqdi materiallar (bo'magan g'altak, qutichalar)dan bolalarning o'yinchoqlar, qayiqcha, turli hayvonlarni yasashlarini tushuntiramiz. Tarbiyachilar yordamida bolalik fantaziyasi bilan bunyod etilgan bunday sovg'alar qaysi ota –onani quvontirmaydi, deysiz.

Maktabgacha yoshdagi bolalarni mustaqil badiiy – ijodiy faoliyatlaridagi qo'l mehnati bolalarning qurish –yasash qobiliyatini, ijodkorligi, fantaziyasi, topqirligini rivojlantiradi. Ushga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi, kiruvchanlikni ishni uddasidan chiqishni, o'z imkoniyatlarini baholashni, yasayotgan buyumni mumkin qadar dursutrok, mustahkamroq, chiroyliroq yasashga intilishini o'rgatadi. Mehnat, jarayonida bolalar oddiy texnik qurilmalar bilan tanisha boradilar, asboblarni o'rni, ishlatilishini biladilar, ham ashyoni tenglab ishlatishni, mehnat qurollariga nisbatan ehtiyotkor bo'lishini o'rganadilar. Qo'l mehnatiga rahbarlik qilish tarbiyachidan mashg'ulotni to'g'ri va qiziqarli tashkil etishini talab etadi. Bolalarning mustaqil badiiy –ijodiy faoliyatlarida qo'l mehnati mashg'ulotlarining qay tarzda tashkil etilishini ko'zlangan maqsad va topshiriq mazmuniga bog'liq. O'rta guruhda oldindan tayyorlangan materiallardan foydalangan holda hamma bir –xil predmet yasash (masalan, kapalak yoki tipratikon), kimniki yaxshi chiqadi o'yini o'ynashi mumkin. Katta guruhlarda esa bolalarga alohida –alohida, ya'ni individual topshiriq berish shaklini qo'llash mumkin. Masalan, bo'sh g'altak va gugurt qutichalaridan katta guruh bolalariga o'yinchoq yasash vazifasi beriladi. Har kim o'zi hohlagan o'yinchoqni yasaydi.

Qo'l mehnati mashg'ulotlari bolalar fantaziyasi parvozga erk beradigan, bolaning o'z ishini namoyon qiladigan eng qulay mashg'ulotdir.

Fantaziya – aql peshlanishining boshlanishidir. Har bir bola o'z turish – turmushi, o'zining taassuroti va tasavvuri, tushunchasi bilan alohida bir olamdir. Unga ta'sir qilishi uchun uni bilish darkor. Uni bilish uchun esa bolani o'z – o'zini erkin namoyon etadigan sharoitda kuzatmoq kerak. Ana shunday “Erkin namoyon etadigan sharoit” esa ko'pincha bolaning nima bilandir juda band bo'lgan, nimagadir berilgan daqiqalarida yaraladi.

Bunday daqiqalarni bog'chada mustaqil badiiy faoliyatida – qo'l mehnati mashg'uloti soatlari berish mumkin.

Odatda bolalar o'zlari istagan o'yinchoqni yasayotganlarida anchagina qiyinchiliklarga duch kelganlariga qaramay ish natijasidan quvonadilar. Qunt bilan qilingan mehnat yaxshi samara berish mumkinligini o'z tajribalarida sinaydilar.

Bolalarni mustaqil badiiy faoliyatlarida qo'l mehnat – mashg'ulot, o'yinlarga mehnat faoliyati uchun zarur bo'lgan bilan tanishtirish.

Tabiiy materiallar (tol navdasi, yong'oq, danak, tuxum po'choqlari, tosh, qalish va boshqalar)dan o'yinchoqlar yasashga o'rgatish. Mahkam materiallarini

isrof qilmaslikka o'rganish. Loy va plastilindan meva va savzovotlar, hayvonlar, qushlar, parandalar, turli o'yinchoqlar uy ro'zg'or buyumlari shaklini yasashga o'rgatish. Bolalarni badiiy – fazoviy tasavvurlarini kengaytirish maqsadida qog'oz va kartondan buklab, qirqib, yelimlab yopishtirish orqali turli buyumlarni (quticha, sandiqcha, stolcha, stulcha, kursicha, xontaxta, uycha shkafcha yasash malakasini hosil qilish.

- tabiiy materiallar o'yinchoq va qurilmalarni tayyorlash bo'yicha bolalar mehnatidir (qog'oz qiyqimlarini tashlash uchun, o'simliklar urug'i uchun qutichalar, qo'g'irchoq kiyimlari, qalpoqchalar, niqoblar va shunga o'xshash narsalar tayyorlash). Qo'l mehnatini bajarish orqali bola natijaga erishadi narsa, buyum vujudga keladi. Bolalar yopishtirish, bo'yash, qirqish, arralash, mix qoqishni, tikish va shunga o'xshash oddiy mehnat malaka va ko'nikmalarini egallab oladilar. Ularda ijodkorlik, topog'onlik zehnlilik, hislatlari o'sadi. Bolalar bilan ishlaganda zo'rma – zo'rakilikdan kechish kerak. Biror narsa yasash bilan mashg'ul bo'lgan bola avvalom bor o'zini erkin namoyon etayotganligini, ma'naviy dunyosini namoyon qilayotganini unutib bo'lmaydi.

Bola o'z qo'li bilan yasagan buyum chiroyli bo'lmasligi ham mumkin. U tugal bo'lmasligi ham mumkin. Muhimi – uni bola yasadi. Shu ish jarayonida uning kayfiyati ko'tarildi, fikrlari ishladi, muskullari mehnat qildi, fantaziyasi tinmay ishlab turdi. Yana eng muhimi shuki ishini qo'lidan kelgancha bajarib bo'lib, u o'zida zavq, qoniqishi hissi tuyadi. Ish shunday tashkil qilinganda masalaning mohiyatiga shunday qaralgandagina bolalar bog'chasi, undagi qo'l mehnatimashg'ulotlari ulkan laboratoriya rolini o'ynash mumkinligini yoddan chiqarmaslik kerak. Bu shunday laboratoriyaki, bola unda o'z tajriba va ko'nikmalari negizida amaliy bilim egallaydi, o'z kuch va qobiliyatini tobora rivojlantirib boradi. Hozircha o'yin jarayonida sinalgan qund, iroda bilimdonlik tashabbuskorlik odat tusiga kirsa, biz haiqiy bunyodkor, ijodkorliarni tarbiyalashdek katta maqsadga erishgan bo'lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X Xasanov. Bolalar bog'chasida tasviriy faoliyat. Termiz-. 1993
2. S. Karimova. "Mohir qo'llar". T.:«O'qituvchi» -1988
3. Marhamat Satbayeva. Rahima Movlonova. "O'quv ustaxonasida amaliy mashg'ulot" Toshkent-"Ilm Ziyo"-2010
4. Aziza Murodova. Gulnoza Murodova "O'yinchoqlar yasash san'ati" Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti Toshkent-2008